

Yurt Qayg'usi

Onam! Seni qutqarmoq uchun jonmi kerakdir?  
 Nomusmi, vijdon bila imonmi kerakdir?  
 Temur bila Chingiz qoni toshdi tomririmizdan,  
 Aytgil! Seni qutqarmoq uchun qonni kerakdir?  
 Yov suqg'ali kelgach qilichini yuragingga,  
 Tush oldiga, ol ko'ksumi - qalqonni kerakdir?  
 Boq, boq, mana turk tengizi toshqun qila qoldi,  
 Turon yovini quvg'ali to'fonmi kerakdir?  
 Turon, yigit, barchaga boq, qalqdi oyoqg'a,  
 Yurda qorovul qo'yg'ali arslonni kerakdir?

Yurt Qayg'usi - bu she'r aruz vaznida yozilgan bo'lib, "Hurriyat" gazetasining 1917 yil 29 dekabr' 62-sonida e'lon qilingai. Shu kunga qadar qayta nashr etplmagan.

"Hurriyat" gazetasi Samarqandda 1917-1918 yillari nashr etilgan. 1917 yil 27-sondan boshlab Fitrat muharrirlik qilgan. Bu nashrda Fitratning qirqqa yaqin publisistik maqolalari va to'rtta o'zbekcha va ikki forsisi she'rei e'lon qilingan.

Yurt Qayg'usi (Sochma)

Ey Ulug' Turon, arslonlar o'liasi!

Senga ne bo'lidi? Holing qalaydir? Nechuk kunlarga qolding?

Ey Chingizlarning, Temurlarning, O'g'uzlarning[1], Otilalarning[2] shonli beshiklari! Qani u chiqdig'ing yuksak o'rinnar? Qullik chuqurlarig'a nedan tushding?!

Dunyoni "urho"lari bilan titratkan yo'lbars yurakli bolalaring qani? Yer tuprog'ini ko'klarga uchiraturg'an tog' gavdali o'g'lolnaring qani? Nечун товушлари чиқмайдир?

Yer yuzining bir necha polvonlari bo'lgan botir turklaring qani? Nечун чекидилар? Nечун кетдилар? Kurash maydonlarini o'zgalarga nechun qo'yidilar? Nечун... Nечун... nechun..? Gapur menga, ey Ulug' Turon, arslonlar o'liasi! Senga ne bo'lidi?!

Yer yuzining buyuk sultanaatlarini sen qurmadingmi? Hindistonning, Eronning, Ovro'paning ulug' xoqonlarini sen yubormadingmi? Ey xoqonlar o'chog'i! Ey qahramonlar tug'oyi![3] Qani u chaqmoq chaqishli botir xoqonlaring? Qani avvalg'i o'q yurushli, otli beklaring? Nечун "urho"ларинг эшитilmaydir?

Dunyo xalqini bo'ysundirmagan sultanatlaring nechun buzildi? Insonlik olamini qanotlari ostinda olgan xoqonlig'ning nechun kuchi o'ldi? Kuchingmi ketdi? Kimsasizmi qoldi?

Yo'q... yo'q... Tangri haqqi uchun yo'q!.. Sen kuchsiz emassan, sen kimsasiz emassan! Bugun yer yuzida sakson milyun[4] bolang bor. Bularning tomirlaridagi qon chingizlarning, temurlarning qonidir. Bularning kuchlari sening kuchingdir!

Ey Ulug' Turon, arslonlar o'liasi!

Qayg'urma! Eski davlating, eski sultanating, eski yigitlaring, eski arslonlaring hammasi bor, hech biri yo'qolmamishdir.

Yolg'iz... Oh, yolg'iz... tarqalmishdir.

Yurt Qayg'usi (sochma she'r). Fitratning o'z so'zlari bilan aytanda "mansura" ("Adabiyot qoidalari"), "Hurriyat" gazetasining 1917 yil 28 iyul' 26-sonida e'lon qilingan. Qayta nashri: "Fan va turmush", 1990, 9-son, 7-bet (tabdilchi Akbar A'zam Xoja).

Yurt Qayg'usi (Bir O'zbek Tilidan)

Yotsam tushumda, uyg'onsam yonimda, ko'z yumsam miyamda, ko'z ochsam qarshumda mungli bir xayol kelib turadur! Bu bir xotun xayoli... Bir xotunki, egnida ipakli, lekin yirtiq va eski bir ko'yakdan boshqa bir kiyim yo'q. Bosh-ayog'lari yalang'och, tirsaklarigacha qop-qora loyqadan botg'an, baqirurg'a tovushi, qutilurg'a kuchi qolmag'an!..

Qarayman: kimsasizlik yukindan orig'langan tanda zolimona urulg'an qamchilarnpng yarasi bor. Ko'raman: johilona qiling'an emlardan nosulg'a[5] qaytg'an yaralarindan qonlar oqib turadur!..

Ey mungli xotun, sen kimsan?

Ey g'amli ona, nechuk mundan ayrlmaysan?

Yonimda, ko'zimda, miyamda, yuragimda nima axtarasan, nechuk ketmaysan?

Qayg'u tutunlari ichra yog'dusiz qolg'an ko'zlar, u yosh yomg'urlarin nechun to'kadir? Zulm zanjirlari bilan bog'langan qo'llaring nechun har yonga uzatiladir, nima tilaysan?..

Oh... Bildim... bildim... Angladim!

Sen menin Vatanimsan, Vatanimning mungli xayolisan.

Ey muqaddas Turonimning xayoli, ketmay tur, ayirma.

Yonimda, ko'zlarimda, yuragimda, vijdonimda qol, ketma.

Turonim, sendan ayrlimoq - menin uchun o'limim.

Sening uchun o'lmoq - menin tirikligimdir,

Panohim, sajdaghohim, umidim!

Yovlaring seni shu kungami soldilar?

Tilagim, istagim, saodatim!

Balolaring seni shu holdami qo'yidilar?

Suyunchim, ovunchog'im, o'chog'im!

Zolimlar seni kimsasizmi ko'rdilar?

Yo'q, sen kimsasiz emassan. Mana men, butun borlig'im bilan senga ko'mak qilurg'a hozir. Mana men chin ko'ngil bilan sening yo'lingda o'lurg'a rozi.

Qof tog'lari yo'limda tushsa;

Tamug'[6] olovlar qarshumdan chiqsa, yana sen sari ketarman.

Ustimga insonlar emas, shaytonlar qo'shini kelsa,  
Oyog'imga zanjirlar emas, jahannam ilonlari sorilsa[7],  
yana sen sari ketarman.

Dunyoning butun balolari boshimg'a to'kulsa,  
Zulm cho'lining temir tikonlari ko'zlarimga kirsa, yana seni qutqararman.  
Men sening uchun tirildim,  
Sening uchun yasharman,  
Sening uchun o'lurman.

Ey turklikning muqaddas o'chog'i!  
O'lim sening o'limingni istaganlarga,  
Nafrat seni ko'mgani kelganlarga!

Yurt Qayg'usi (bir o'zbek tilidan) - ushbu sochma ham "Hurriyat" gazetayeida chop etilgan (1917, 18 avgust 31-son). Qayta nashri:  
"Fan va turmush" j., 1990, 9-son, 7 bet.

### Yurt Qayg'usi (Temur Oldinda)

Bag'rim yoniq, yuzim qora, ko'nglim siniq, bo'ynim buuk.

Sening ziyyoratingga keldim, sultonim!

Ezilgan boshim, qisilgan vijdonim, kuygan qonim, o'rtangan jonim uchun bu sag'anangdan davo izlab keldim, xoqonim!

Yuz yillardan beri jafo ko'rub, g'am chekib kelgan turkning qonli ko'z yoshlarin etaklaringga to'karga keldim.

Qorong'uliklar ichra yog'dusiz qolgan o'zbek ko'zlar uchun tuprog'ingdan surma olg'ali keldim.

Nomusini bad kishilarning ayog'lari ostinda ko'rib turklik qoni qaynag'ay, musulmonlik hamiyati toshg'ay, tamug' olovlar kabi sochrag'ay.

Lekin o'z kuchsizligin anglab qaytib o'tirgan va qon yig'lagan turkning holini aytarga keldim, xoqonim!

Ulug' xoqonim! Turklik sharafi talandi.

Turk uchun qo'ydig'ing davlat bitdi, turk ostig'a qurdig'ing hoqonlik yog'iygami ketdi.

Turkning nomusi, e'tibori, iymoni, vijdoni zolimlarning ayog'larni ostinda qoldi.

Turkning yurti, ulog'i, o'chog'i, Turoni yet qo'llarg'a tushdi.

Turkning bilgisi, ongi, o'ylovi, ziyrakligi jaholat o'ljasig'a ketdi.

Sening qiliching bilan dunyo egasi bo'lg'an turk tinchgina bir yotoq topolmay qoldi.

Sening kuching bilan dunyo xo'jasni bo'lgan turk qarluq temurlariga[8] kirdi.

Xoqonim!

Turklikka xiyonat qilg'anlar turk bo'lsalar ham qonlarini oqizmoq sening muqaddas odatingdir, yotma, tur!

Sening omonatingg'a xiyonat qilg'anlarni ez, ur, o'ldur!

Sultonim!

Bilaman, shu tobda sening u yuksak va ulug' ruhoniying men kabi tuban ruhli va himmatsiz bir bolasing shu holig'a g'azabli kulub turubdir.

Bilaman, shu chog'da sening to'lqunli dengizlarg'a o'xshag'an yuraging men kabi yuraksiz bir o'g'lingning shu ko'rinishindan nafrat qiladir.

Chunki yuqorida aytdigim ishlarning hammasiga o'zim sabab bo'ldim, barchasini o'zim qildim,

Sening Turoningni o'zim talatdim,

Sening turkligingni o'zim ezdirdim,

Sening omonatlaringga xiyonat o'zim qildim.

Men uch kunlik umrimni tinchgina yotib o'tkazmoqchi bo'lmasa edim, shularning birortasi bo'lmas edi.

Men qo'limg'a topshirdig'ing qilichni tashlab, cholg'uni olmasa edim, Turonim talanmas edi!..

Men yolg'iz qonli ko'z yoshlarimni bu sag'anangga to'kmak uchun emas, o'z yoziqlarimni iqror etarg'a keldim, XOQONIM.

Meni qo'yma!

Men yolg'iz yoziqlarimni iqror etarg'a emas, Turong'a berdigim zararlarni to'lamoq uchun keldim, XOQONIM.

Menden nafrat etma!

Ey arslonlar arsloni!

Menim yozuqlarimdan o't,

Meni qo'limni tut,

Belimni bog'la, muqaddas fotihangni ber!

Sening dunyoga sig'magan g'ayratingga ont ichamanki, Turonning eski sharaf va ulug'lig'ini qaytarmasdan burun ayog'laringda o'tirmasman.

Yurt Qayg'usi (Temur oldinda). Sochma. "Hurriyat" gazetasining 1917 yil 31 oktabr' 47-sonida ilk bor e'lon qilingan. Qayta nashri:  
"Fan va turmush" j., 1990, 9-son, 7-bet.

### "O'zbyok Yosh Shoirlari" To'plamidan

"O'zbek Yosh Shoirlari" to'plami 1922 yilda Toshkentda chop etilgan. Unga Fptrat, Cho'lpon, Botu, Elbekning she'rlari kiritilgan bo'lib, Fitratning 1919B-B"1921 yillar orasida yozilgan 13 she'ri to'plamdan joy olgan. Ushbu to'plam haqida quyidagi taqrizlar e'lon qilingan: A. Sa'diy. O'zbek yosh shoirlari. "Turkiston", 1924, 12 yaivar'; O. Sharafuddinov. O'zbek yosh shoirlari. Cho'lpon. "Qizil O'zbekiston", 1927, 14 fevral' ("Ayn" imzosi bilan).

Kim Deyay Seni?

Oppog'im, xudoy asrag'ay seni,  
Ko'z balosidan saqlag'ay seni.  
Sen jahoning eng nozaninisen,

Qayg'ularg'a hech solmag'ay seni.  
 Qip-qizil gulim, yop-yorug' oyim,  
 Ketmay tur, bir oz men ko'ray seni.  
 Dardi jonioining sen davosimi?  
 Mungli ko'nglumning podishosimi?  
 Gulmi sen, ko'zim, jonmi sen, ko'zim?  
 Ko'nglimning buti yo xudosimi?  
 Bilmadim, gulim, ayt o'zing kulib,  
 Oshiqing nechuk atag'ay seni?

Kim Deyay Seni? Qayta nashri "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" haftaligida 1987 yil 11 dekabr' sonida (nashrga tayyorlovchi Naim Karimov) e'lon qilingan. Dastlabki to'plamda she'rning sanasi ko'rsatilmagan, qayta nashrda 1920 yilga taalluqli ekani aytildi.

### Bir Oz Kul

Ko'z yoshlarim bukun tag'in oqadimi?  
 Qizil gulim boshqalarg'a kular-da.  
 Qizil gulim, borlig'imning sulton!  
 Jonim, sening xayolingda kuchaydi.  
 Yuragimning eng qimmatli armoni,  
 Nechuk menga marhamating ozaydi?  
 Ikki ko'zim, malak yuzim, sevdigim,  
 Jonlar sening yuzginangdan aylansun.  
 Qizil gulim, qora ko'zim, tilagim,  
 Dunyo sening boqishingdan o'rgulsun.  
 Yovuz yorim, yuzingga hech boqolmam,  
 Ko'ngil dardin oyog'ingga to'kolmam.  
 Tuproq kabi yiqilmisham yo'lingda deya olmam.  
 Istar esang menga kelib gapurma, yonimda hech o'turma.  
 Yolg'uz yig'lab uzoqdan turg'animni  
 Ko'rganingda, marhamat et, bir oz kul!

Bir Oz Kul. 1991 yilning iyuniда "Sharq yulduzi" jurnalining 6-sonida (20-bet) qayta nashr qilindi (nashrga tayyorlovchi H. Boltaboyev). She'rning sanasi ko'rsatilmagan. Fitrat tarjimai holini kuzatib, 20-yillarning boshlarida Toshkentda yozilganini taxmin qilish mumkin.

Achchig'lanma Degan Eding  
 Umidsizlik xanjari bilan yaralang'an bir yurakning eng so'nggi armug'oni

Erka malak, achchig'lanmam senga  
 Uchirsang-da ko'kka yurak kulin.  
 Achchig'lanmam senga, nozli quyosh,  
 Yondirsang-da umidimning gulin.  
 Borsun, yonsun umidimning guli;  
 Ko'kka uchsun yuragimning kuli,  
 So'l sun ruhim, borlig'im-da bitsun.  
 O'ksiz ko'zning yoshi kabi ishqim  
 Tuproq uzra to'kulsun-da kesun.  
 Tilaklarim, armonlarim, she'rim  
 Ko'milsunlar, kerakmaslar menga,  
 "Hayot" degan qopqon borsun,  
 Parchalansun, bitsun, yo'qolsun.  
 Biroq, sen... kim, xayolingga ruhim  
 Tolpinadur - yasha, bor bo'l, tutash.

Achchig'lanma Degan Eding. She'rning sanasi ko'rsatilmagan. Sarlavha ostidagi so'zlar muallif qalamiga mansub. Qayta nashri uchun qarang: "Sharq yulduzi", 1991, 6-son, 20 bet.

### Mirrix Yulduziga

Go'zal yulduz, yerimizning eng qadqli tuqg'ani!  
 Nega bizdan qochib mucha uzoqlarg'a tushibsan;  
 Tuvg'aningga nechun sira gapurmasdan turibsan?  
 So'yla, yulduz, holing nadir? Nechoch topding dunyon?  
 Bizning yerda bo'lib turg'an tubanliklar, xo'rliklar,  
 So'yla, yulduz, sening dag'i quchog'ingga bo'lurmi?  
 \* \* \*

Bormi senda bizim kabi insonlar,

Ikki yuzli ishbuzarlar, shaytonlar.  
 O'rtoq qonin qonmay ichkan zuluklar,  
 Qardosh etin to'y may yegan qoplonlar?  
 Bormi senda, o'ksuz yo'qsulning qonin -  
 Gurunglashib, chog'ir kabi ichkanlar?  
 Bormi senda butun dunyo tuzugin  
 O'z qopchig'in to'ldirg'ali buzg'anlar.  
 Bormi senda bir o'lkani yondirib,  
 O'z qozonin qaynatg'uchi xoqonlar.  
 Bormi senda qorin-qursoq yo'lida  
 Elin, yurtin, borin-yo'g'in sotqonlar?  
 Mirrix Yulduziga. Qayta nashrida 1920 yil sanasi ko'rsatilgan. Qarang: "O'zbekiston adabiyoti va san'ati", 1987, 11 dekabr' (tabdilchi N. Karimov).

Ovunchoq  
 Mirmuhsinga[9] bag'ishladim

To'sib turgan oydinlikning yo'lini  
 Shu qop-qora, eski, titrak bulutlar,  
 Kuchli bir yel ko'rgach, turmas, yirtilar,  
 Umid kuni sening uchun ham tug'ar.  
 Qayg'urmag'il sira, ey haq tuyg'usi!  
 Bukun sen  
 Ezilasan bilimsizliqdan ortiq.  
 Shu qorong'u, yuraklarni(ng) butunlay  
 So'kish, qarg'ish, la'nat aralash bo'g'iq  
 Tovushlari senga to'g'ri yuksalgan.  
 Quvilasen bu sezgusiz o'lkadan.  
 \* \* \*

Kimsasizlik puchmog'ida yolg'uzcha,  
 O'gay ona tayog'i-la surilgan,  
 Yo'qsul, o'ksuz qizlardan  
 Ingrab, inglab, oqib turg'an bir soyning  
 Qirg'og'ida o'skan o'ksuz bir og'och  
 Ko'rgach, shuning ko'lkasiga sig'inarsan...  
 Biroq, ishon - shu hollarning barchasi  
 Erta, indin butun-butun yo'qolar.  
 Oldimizni to'sgan bulut parchasi  
 Kuchli bir yel ko'rgach turmas, yirtilar.  
 Umid guli bizim uchun ham tug'ar:  
 Qayg'urmagil, sira, ey haq tuyg'usi!

Ovunchoq. She'r mashhur ma'rifatchi adib Mirmuhsip Shermuhamedovga bag'ishlangan. Botu 1929 yili M. Shermuhamedov vafoti munosabati bilan "Katta yo'qotuv" maqolasini yozgan, bu maqolada Fntratning ushbu she'ri ham tilga olingan. She'r "O'zbek yosh shoirlari" dan olinib, nashrga tayyorlandi.

Ishqimning Tarixi  
 (...ga)

Ko'b kunlar sendan uzoqda men yolg'iz o'rtana qoldim,  
 Yog'dirdim ikki ko'zimdan yomg'urdek qonli olovlar.  
 Yonmishdi ko'nglim o'ti-la tek sendan o'zga tilovlar,  
 Ishqingning qayg'ularini jon yanglig' bag'rima soldim...  
 Lekin sen, ey, yuragimning birdan-bir sevgili yori,  
 Ko'r kamlik bog'chalaringga sezmasdan qayg'ularimni  
 bulbuldek sayrab ucharding.  
 Ko'klarning xoniga o'xshab, kimlarning o'rtanganini  
 Bilmasdan yerdagilarning dunyosin naq yoritarding.  
 Qoldiqcha bo'yala xabarsiz ishqimdan, jon chechagim, sen  
 Ko'nglimning tuyg'ulari-la shoirlik sezgularimni  
 Bu yo'ldan o'tga solarding,  
 Bir qo'ldan yerga urarding  
 Ham yo'q etarding fikrimning to'plaganini.  
 Tun-kunlar yig'laganimning asiri bo'lisa kerakkim,  
 Sen eng so'ng menga yondoshding, ruhimni o'ynata qo'yding.  
 Cheksiz bir tong chirog'i-la surgunlab kechalarimni,  
 Yulduzli yo'llarni birdan she'rimning oldiga ochding...

Ishqimning Tarixi. Qayta nashri: "Sharq yulduzi", 1991, 6-son, 21-bet.

### Yana Yondim

Yuragimning qalin, qizg'in olovi-la qaynag'an  
 Ko'z yoshlarim! Qaydasiz?!

Kunim kabi uzun, qora shu kechada kutib men  
 Erishmadim sira sizga... Nega bo'yila qochasiz?!

Nechun meni sababsizcha unutdingizb" aytingiz?  
 O'tinamen... yalinamen, qochmangiz - qaytingiz!  
 Yana butun borlig'imning negizlari yemirildi,  
 Umidimning ko'p chidamli teraklari yiqildi,  
 Xayolimning totli, chuchuk soatlarni butunlay  
 Uzoqlashib ketdi mendan..! To'sib turar yo'limni  
 Umidsizlik qayg'ulari tongi otmas bir tunday,  
 O'lim dahi qutqarg'ali kelib tutmas qo'limni.  
 Qecha uning nur tengizi bo'lg'an go'zal manglayi  
 Tolg'alanmish ko'rgach men...  
 Yer yuzida borlig'imni ko'rsatmakdan uyaldim.  
 Yutdim butun qayg'ularning, motamlarning og'usin.  
 Jon tortg'usi bo'lgan ko'zi og'ir, nozli suzilardi,  
 Bir oz burun chog'ir ichkan parilarg'a o'xshardi.  
 Bilmam nechun o'ylardi..!  
 Ka'ba uzra aylang'uvchi ko'garchindek[10] yuragim,  
 Soatlarcha shul ko'zlarning tegrasida aylandi.  
 Biroq u.  
 Menga sira boqmadi,  
 Yig'ladim,  
 Kuldim,  
 Yalindim -  
 Tushundim:  
 Birtasi ham mizojiga yoqmadı.  
 Yig'la, bir oz o'ksuzlangan tilagim:  
 Men ham senday baxsizlikka tutundim,  
 Umidsizlik ora tushib yo'qsul jonim o'rtondi.  
 Yana Yondim. Qayta nashri: "Sharq yulduzi", 1991, 6-son, 22-bet.

### Nega Buyla?

Sen kelgach...  
 She'rim uchun  
 Qizil go'llar to'shalgan,  
 Yulduzlar-la bezalgan  
 Eng keng bir yo'l ochildi.  
 Sen kelgach,  
 Ko'nglumni  
 Qayg'ular-la, motamlar-la o'rang'an  
 Qora qalin pardalari  
 yirtildi.  
 Sen kelgach,  
 Xayolim  
 Umid, armon chechaklari ochilgan  
 Uchmoq kabi bog'chalarda bulbuldek  
 Sayrab yurdi.  
 Biroq sen  
 Ishqingdan  
 Kecha-kunduz yonib turgan ko'nglimning  
 Dardini  
 Hech sezmasdan kula-kula turar-da  
 Yonar butun borlig'im... nega bo'yla?!

Nega Bo'yla? She'r 10 mart 1920 yili yozilgan. Qayta nashri: "O'zbekiston adabiyoti va san'ati", 1987, dekabr'. Qayta nashrida 1920 yil 14 mart sanasi keltirilgan.

### Shoir

Bukun yig'lab o'tirmishdim, sen kelding,  
 Bir shoirning bir "so'zi" ni so'zlading,  
 Men u so'zning ruhingdag'i izlarin  
 Sening go'zal ko'zlariningda o'qidim.  
 O'qiduqcha, u izdan  
 O'zim uchun ko'b umidlar to'qidim.  
 - Umidsizcha yashay olmam, netayin.

Emish... Shoir sevgilisiga yozg'an  
 Bir yozuvda qayg'ularini to'kmish,  
 So'zlarining eng oxirida ondan  
 Ruhi uchun bir oz ko'mak istamish.  
 Bilasanmi?

Shoir ishqning eng nozli,  
 Erka, injiq yog'dusidir, turolmas  
 Ma'shuqidan ko'rмагancha kulushli,  
 Marhamatli, chin sezguli bir ko'mak,  
 Mana shudir uning uchun bor tilak.

Shoir  
 Tabiatdan sirli, teran ma'nolar,  
 Tiriklik-chun ochiq, to'g'ri, chin yo'llar  
 Izlar - topar, o'zi uchun saqlamas.

Unlarni  
 Yoz gulining yaprog'idan to'qilgan  
 "So'z"lar ilan o'rab bizga topshirar.

Shoir  
 Ishq bog'ining tentak, singirli, yongan,  
 Bulbulidir. Bashariyat dunyosin  
 Kichik, nozli qanoti uzra qo'yari,  
 Ko'klar sari yuksaltkali talpinar.  
 Mana shuning o'ksuz, yo'qsul ko'ngluni  
 Ko'tarmak-chun, go'zallarga tegishdir.  
 Kim ozg'ina qarag'aylor, kulgaylar  
 Ingrab turgan jonini  
 Qo'lllag'aylor, bir oz ko'mak etkaylar.

Shoir. She'r 1920 ypl 24 martda yozilgan. Qayta nashri: "O'zbekiston adabiyoti va san'ati", 1987, 11 dekabr'. Miyon Buzruk Solihovning dalolati bo'yicha, bu she'r Abdulhamid Cho'lponga bag'ishlangai.

### Behbudiying Sag'anasin Izladim

Cho'kmishdi yer uzra olam to'sug'i,  
 O'ksuzlik boyqushi qanot qoqardi.  
 Botuvda qizarib turg'an bulutdan  
 Ezilg'an ko'nglima motam yog'ardi.  
 Haqsizliq shahrining qon hidli yeli  
 Armonim gulidan bir yaproq uzbub,  
 Bahorsiz cho'llarga sovurib qo'ydi.  
 Ul nozli yaprog'im so'lib, sarg'ayib,  
 Yo'qsul qolq'anlarday har yon yugurdi.  
 Zolimlar, mazlumlar, zulumlarning-da,  
 Qayg'ular, alamlar, o'lumlarning-da  
 Bariga uchradi, barchasin ko'rdi,  
 O'z yo'qtqonin izladi, so'rdi.  
 Bir darak topmag'ach, birdan bir tikildn.  
 Bor kuchin to'pladi.

Zolimning taxtini titratgan bir tovush  
 Qichqirdi:

- Otamning qabrini qay yerga yoshurding?!

Bot so'yla!...

Kirli toj ko'b qo'rqli botur tovshidan,  
 Seskanib, titrab... yoshrundi  
 Bir javob bermasdan.

Behbudiying Sag'anasin Izladim. She'r 1920 yil yozilgan. "O'zbek yosh shoirlari"dan olinib nashrga tayyorlandi (bunga qadar matbuotda e'lon qilingan bo'lishi mumkin). "Fan va turmush" jurnalining 1989 yilgi sonlaridan birida qayta nashr qilingan (tabdilchi Sh. Turdiyev).

She'r Amir Olimxonning buyrug'iga ko'ra Qarshi begi tomonidan 1919 yilda o'dirilgan Mufti Mahmudxo'ja Behbudi (1875-1919) xotirasiga bag'ishlangan. Bu haqda qarang: "Inqilob", 1922, 1-son.

Parcha

Ur, ur!.. Sening tirnoqlaring nozli, nozli urdiqcha[11],

Yuragimning bitib qolgan yaralari ochilsun!

Cholgi qili sening nozli tirnog'ing-la titrarkan,

Umidimni qoplab turgan qora bulut yirtilsun!

Parcha. 1920 yil 11 anrelda yozilgan. "O'zbek yosh shoirlari"dan olingen bu she'riy parchanipg asl sarlavhasi berilmagan. Ehtimol, tugallanmagan bo'lgani va mazmunan mumtoz adabiyotdagi qit'aga yaqin turgani uchun, shunday nomlangan.

O'gut

Og'ir yigit, sening go'zal, nurli ko'zingda

Bu millatning saodatin, baxtin o'qudim.

O'ylashingda, turishingda hamda o'zungda

Bu yurt uchun qutulishning borlig'in ko'rdir.

Turma - yugur, tinma - tirish, bukilma - yuksal,

Hurkma - kirish, qo'rhma - yopish, yo'rilm[a] - qo'zg'al.

Yel yo'lini to'sib turgan eski bulutlarni

Yondirib qo'y, yirtib tashla, barchasin yo'q et.

Qilolmasang shu ishlarni,

Sening uchun xo'rlikdir bu...

Yiqil, yo'qol, ket!

O'gut. Qayta nashri: "Chin sevish" (T., 1996).

Sharq

Qardoshlarim, mana sizga bir o'lka

Kim, topilmas yer yuzida singari.

Har yonida keng, yam-yashil uchmohlar

Jon suvindan yetishkandir gullari...

Og'ochlari yashil kiyimlar kiygan

Evrilishar toping'ali tangriga.

Og'ir, yuksak, ko'rkan, haybatli tog'lar

O'ngdan,

So'ldan...

Har yondan

Haq yo'lida urushg'uchi askardek,

Yasov tortib, ko'krak kerib yuksalgan

Ko'kdan dahi o'z haqqini istardek.

Tengizlardan qanot ochib tabiat

Quchoqlamish bu sevgili yovdusin.

Tangri dahi muzdan, suvdan ham tog'dan

Qurshatmishdir qo'rg'on qilib tegrasin -

Kim yovvoyi bir hayvon

Suqub qolmasun munga yirtqich tishin, tirnog'in.

Bunda turdi har ulusning har sasi,

Butxonasi, o't uyasi, ka'basi,

Ham munda o'q yashadi.

Biroq bu kun, esizlarkim, bu o'lka

Har tomondan talanmishdir yo'lsizcha,

Madaniyat degan g'arbli olbosti,

Boqing, buning ko'kragidan o'q bosdi.

Qush boqish-la qarangiz,

Bunda bu kun nelar bor:

O'tlar aro yonib turg'an qishloqlar,

Xirmon bo'lib yotg'an gavdalar jonsiz,

Oqmoqdadadir qizil qondan ariqlar,

Tinch turg'anlar talanadir omonsiz.

To'rt-besh yashar bir bolaning boshini,

Boqing, keskin qilich bilan kesmishlar,

Yig'labturg'an onasining bo'ynig'a

Bir ip bilan osmishlar!...

Yangigina kelin bo'lg'an bir qizning

Ko'kragini eri bo'lgan yigitning

Jonsiz yotgan gavdasi uzra qo'yub

Nayza bilan teshmishlar!...

Xotinlarning pardasi,  
Bolalarning yuragi,  
Qarilarning gavdasi,  
Yirtilgan,  
Yorilgan,  
Ezilgan!...  
Kim bergen,  
Bu o'g'urli[13] o'lkaza buncha o'tni?  
Kim to'kkan  
Bu muqaddas ishga buncha qonni?!  
Bilmaysizmi?!

Sharq. She'r dastlab "Tong" jurnali (1920 yil, 2-son)da "poyema" rukni bilan e'lon qilingan. So'ngra "O'zbek yosh shoirlari" to'plamiga kiritilgan. Qayta nashri: "O'zbekiston adabiyoti va san'ati", 1987, 11 dekabr'.

Buxoro xalq jumhuriyati davrida BuxChK raisi va Ichki ishlar noziri bo'lib ishlagan Muinjon Aminovning 1937 yilgi so'roq anketasiga ko'ra (16БТ"20 aprel"), bu she'rga F. Xo'jayevning iltimosiga ko'ra xalq artisti Qori Yoqubov; kuy bastalab, ijro etgan. Ushbu ma'lumot tafsiloti uchun qarang: "Sharq yulduzi", 1992, 10-son, 175-bet.

She'r tahlili uchun qarang: B. Qosimov. Fitrat. Chizgilar. "Sharq yulduzi", 1992, 10-son, 172БТ"176 betlar; H. Boltaboyev. Noma'lum Fitrat. "Yoshlik", 1990, 4-son.

To'plamga Kirmagan She'rlar  
O'qitg'uvchilar Yurtiga

Orqadoshlar, to'planaylik jahlning uyin yiqqali  
El ko'zin olg'an qorong'u pardalarni yirtkali.  
Biz erurmiz ma'rifat arslonlari, ilm erlari,  
To'planaylik, turk elig'a to'g'ri yo'llar ochqali.  
Ellari mahvdan qutqaran ilm erur,  
Bizlari ham bu kundan o'zi qutqarur.  
Biz erurmiz elning insonlik qonin qaynatg'uchi,  
Turk arslonin o'rinsiz uyqudan uyg'otg'uchi.  
Ma'rifat bayrog'i ostig'a yig'ildik barchamiz -  
Kim, bizi otganlara haq yo'llarin ko'rsatkuchi...  
Ellari mahvdan qutqaran ilm erur,  
Bizlari ham bu kundan o'zi qutqarur.  
Haydag, o'rtoq, qutqaraylik jahldan Turonlari,  
Yorutaylik ma'rifat nuri-la Turkistonlari,  
Ilm o'chog'ida yetishkan er-yigitlar, to'planing!  
Qochiraylik jahl urdusin[14], ochaylik onglari...  
Ellari mahvdan qutqaran ilm erur,  
Bizlari ham bu kundan o'zi qutqarur.  
O'qitg'uchilar Yurtiga. 1921 yilda yozilgan bu she'r 1991 yili "Sharq yulduzi"da qayta nashr bo'ldi (6-son, 22-bet).

Qor

Kuchsiz, titroq, oppoq, kichik tomchilar,  
Turmay, tinmay tuproq uza yog'adir.  
Yel bizlarni, bilmam, nechun qamchilar?!

Ko'klarda ham ayoqlikdan oqarg'an  
Bir ko'z bormikim, yoshi  
Bizning alam, o'lim bilan sug'orilgan  
Yerimizning ko'chigiga oqadir.  
Bu kichkina, o'ksuz, oppoq bebaklar,  
Ucha-ucha yetmay qolq'an tilaklar  
Eskan yelning qo'llarig'a o'zini  
Tashlab qo'yari, borlig'ini unutar.  
Hech uzmayin yuqorida ko'zini  
Titrab-titrap qora yer uzra tushar!  
Tushgach, butun tushkanlarday toptalar...  
Tekkan yerin bilmay bosg'an oyoqlar,  
Pichratalar buning oppoq betini.  
Bosgan izin ko'rmay o'tgan tuyoqlar,  
Toptab-toptab, oh... aytolmam ketimi...  
Yana bir kun ko'k ko'kragini ochib,  
Kula-kula bunlar sari boqg'anda,  
Yana bir kun qizlar kabi tabiat,  
Qulog'iga oltin halqa taqq'anda,  
Bunlar butun pichroqlardan ayrilib

Ko'klar sari qarab uchib ketadir.  
Yana uchish, yana o'yin, yana erk,  
Oh... u kunlar!...

Sho'r suvlardan chiqib kelgan bu maymun,  
Tulki, ilon, shayton, aldovchi mal'un[15]  
Anglizlar!...

Hamda uning quyrug'ini tutkanlar!

Qor. Ilk bor Buxoro maorif nozirligi nashri bo'lган "Uchqun" jurnali (1923, 2-son)da chop qilingan. Qayta nashri: "Sharq yulduzi", 1991, 6-son, 22-bet.

### Mening Kecham

Kech bo'ldi, tinib bitdi tovushlar,

so'ndi butun uylarda chirog'lar,  
tebranmadi yer uzra oyog'lar,

zulmat yana har yon oqa qoldi.

Tolpinmadi, sayrashmadi qushlar,

jimjatkina inga kirdi,

boshini soldi keyinga,

so'lg'un qanoti ostig'a oldi.

O'chmoq, yashamoq qayg'ulariga

"chiq" deb o'zini uyqug'a soldi,

har dardi yo'qoldi.

Ko'klar sari chaqqon ko'tarilgan

tog' gavdali uylar,

qo'nuqlar,

saroylar

ayrildi butun dabdabasindan,

bnr qop-qora haykal tusnn oldi.

Kunduz sakiz-o'n yoqqa yugurgan,

chopgan,

yiqilishg'an,

yana turgan,

o'ng, so'l uni tepkan, buni...

inson-da yotib uyqug'a toldi!

So'lg'un, qora, turg'un dema. Ko'rdim

mungli kechaning mungli chog'inda,

ko'b mungli uyimning qirog'inda

yolg'uz iki narsa yondosh-da:

biri sham'im,

biri...

ko'nglim!

Boshqa hama tinch, jim,

o'chlab uzonishda.

Shunday kechalarni sevaman men,

bunda yugurish yo'q,

so'rg'ilush yo'q.

Yurmoq-da, oldamoq-da ko'rulmas;

yolg'uz ko'rinish,

soxta kulish yo'q.

Yov shakli ko'zimdan

Ko'b uzoqda.

Do'stlar esa undan-da yiroqda.

Shunday kechadan o'rgulaman men!

Mening Kecham. Sho'ro davridagi barcha darslik va qo'llanmalarda "aksilsho'roviy", "millatchi badbin kayfiyatlarni ifodalovchi" deb talqin qilingan bu she'r 1923 yilning oktabrida Moskvada yozilgan. Bunga teskari ruhda Botu "Mening kunduzim" she'rini yozgan. Qizig'i shundaki, Fitrat shoir Botuning she'ridagi ruhni, undagi "kunduzning tovlanishlari"ni birinchilardan bo'lib anglagan bo'lса ham, aslida bunday she'r yozishga o'zi maslahat bergani uchun, uni o'z she'ri bilan bиргаликда "Inqilob" jurnalining 1924 yil 9-B"10-sonida (3-B"4. 7-B"8-bet) e'lon qilgan. 1996 yilning dekabrida Fitratning 110 yillik yubileyi munosabati bilan "Turkiston" ro'znomasining 1996 yil 21 dekabr' sonida qayta nashr etildi (nashrga tayyorlovchi H. Boltaboyev).

\* \* \*

Go'zalim, bevafo gulistonim  
Bog' umrimda toza rayhonim,  
G'amu qayg'ularim hujumindan  
Sen eding mehribon nigahbonim.  
Meni behuda tashlading-ketding,

This is not registered version of TotalDocConverter

Nega o'rninadigan surʼat.  
 Kel, gulim, kel, ayoqingg'a yiqilay,  
 Bir zamon qo'y: to'lib-toshib yig'lay.  
 Qo'y, bir oz qo'yki, xoki poyingni  
 Surmadek yoshli ko'zuma suray.  
 Ketma, tur, tingla arzi holinmi,  
 Arz etay holi purmalolimni.  
 Qani ul damki, sen eding yorim,  
 Munisim, hamdamim, madadkorim.  
 Sening og'ushi iltifotingga  
 Rohat etmishdi jismi bemorim.  
 Meni behuda tashlading-ketding,  
 Nega o'ldirmading-da tark etding.  
 Kel, ayoqingg'a qon bo'lub to'kulay,  
 Bir nafas dard-hajrdan qutulay.  
 Kel, go'zal dilbarim, kel, sochingni  
 Bir taray, bir o'pay-da, so'ngra...  
 Meni behuda tashlading-ketding,  
 Nega o'ldirmading-da tark etding.

Go'zalim, Bevafo Gulistonim. 1932. yil 4 noyabrda Samarqandda yozilgan bu she'r 1987 yili qayta nashr qilingan: "O'zbekiston adabiyoti va san'ati", 1987, 11 dekabr'. Bu asarning yozilish tarixi bastakor Mutavakkil Burxonovning Fitrat haqidagi xotiralarida bayon qilingan: "O'zbekiston adabiyoti va san'ati", 1992.

Б†‘ О'г'узсон - xunlar davridagi qadimgi turk xoqonlaridan. Asl ismi Musaxon Teoman o'g'lidir, vafoti isoviy 174-yil. Tug'ilgan sanasi aniq emas. O'ttiz besh yil hukmronlik qilgan.

Б†‘ Otilla - Xun xoqoni Minjuq o'g'li (395БЂ”453). Akasi Veldaning o'limidan so'ng (422 y.) xoqonlpkni to'la o'z qo'liga olib umrining so'nggiga qadar hoqonlik qolgan. Qayta nashrda "Otilla" so'zi "oila" deb noto'g'ri yozilgan.

Б†‘ tug'oy - tug'ilgan joy.

Б†‘ sakson milyo'n - o'sha yillari yer yuzida turkpy qavmga mansub 80 million aholi bor edi, shu raqam nazarda tutiladi.

Б†‘ nosulg'a - tuzalmagan, qayta kasallangan.

Б†‘ tamug' - jahannam.

Б†‘ sorilmoq - yopishmoq.

Б†‘ qarluq temurlar - temir panjaralar.

Б†‘ Mirmuhsin Shermuhamedov (1895БЂ”1929) - dastlabkn o'zbek jurnalisti, ham ma'rifatparvarlaridan. 1917 yili 25 aprelda "Turon" gazetasida bosilgap maqolasi uchun jazoga tortilgan, hatto uni toshbo'ron qilib o'ldirish haqida hukm chiqqan. Lekin g'ayratli do'stlarining aralashuvi tufayli hukm qamoq jazosiga almashtirilgan va u do'stlaripnng yordamida Ufaga qochirib yuborilgan.

Б†‘ ko'garchin - kabutar.

Б†‘ urdiqchab Б” tanbur chalganda barmoqqa taqiladi.

Б†‘ yo'rılma - charchama.

Б†‘ o'g'urli - sho'rlik.

Б†‘ o'rdu - lashkar, armiya.

Б†‘ "Tulki, ilon, shamton, aldovchi mal'un" satri qayta nashrda tushib qolgan.